

---

Yangi bino qurishdan avval tuproqning unumdor qatlami sidirib olinishi kerak

“Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida”gi Qonun (O'RQ-903-son, 02.02.2024-y.) Prezident tomonidan imzolandi.

Qonun bilan **tuproqni muhofaza qilish** va uning **unumdorligini oshirish** sohasidagi asosiy prinsiplar, sohani davlat tomonidan tartibga solish, tuproq unumdorligini oshirish asoslari va tartibi belgilandi.

**Qishloq xo'jaligi vazirligi** tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

**Yer egalari** Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutidan o'ziga tegishli yer uchastkasidagi tuproqning sifatini baholash to'g'risida axborot olish huquqiga ega.

**Yer egalari** shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishda tuproqning mavjud unumdor qatlamini **sidirib olishi va saqlashi shart.**

**Sidirib olingan** tuproqning unumdor qatlamini qurilish tashkilotlari hokimliklar tomonidan belgilangan joylarga saqlash uchun olib chiqadi.

Tuproqning unumdor qatlami sidirib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlanganda, yetkazilgan zararining o'rnini **mahalliy byudjetga qoplanadi.** Mazkur pul mablag'laridan qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan sug'oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish va yerlarning **meliorativ holatini** yaxshilash uchun foydalaniladi.

Tuproqni o'rganish **Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklarining** vakolatli tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Shuxrat Mirzakirov**

**Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston tuman sudining raisi**

2024-02-27 08:50:33